

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 184-190 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TURIZM XIZMATINI SAMARALI TASHKIL ETISH



**Musirmonov Shaxboz Usmon o'g'li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti.

**Annotatsiya:** IT-texnologiyalardan foydalangan holda turizmni rivojlantirish mexanizmini rivojlantirish, turizm xizmat ko'rsatish tizimini raqamli texnologiyalardan foydalanib rejalashtirish va shahrasabz shahrida turizm tashkil qilishning nazariy asoslari takomillashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, IT texnologiya, turizmni rivojlantirish mexanizmi, axborot tizimi, Outsourcing, Frilanser, Autstaffing, onlayn birja.

**Kirish.** Hozirgi kunda turizm sohasida intellektuallashgan raqamli texnologiyalarni samarali rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada turizm xizmat ko'rsatishning mobilligini oshirish, zamonaviy shakllarini joriy etish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish, sayohatchilar guruhlarini ehtiyojlarini hisobga olgan holda turizm infratuzilmasini zamonaviy shakllarini kengaytirish kabi rejalashtirish muhim ahamiyatga egadir. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida turizm xizmati faoliyatini samarali tashkil etish va yuritishda eng muhim muammolardan biri malakali xodimlarni jalb qilish va tayyorlash masalasi hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi barcha sohalarda shu jumladan turizm sohasida AKTdan foydalanish natijasida "haqiqiy" va "virtual" dunyo bilan uzviy bog'lanish sharoitida bo'lishni taqozo etmoqda. Keng qamrovli ulanish tufayli hatto masofa ham turistik joylarni tanlashda muammo bo'lmay qoldi.

**Tadqiqot metodlari.** Raqamli iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatishning 'ziga xos innovatsion turi rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik-texnologik o'zgarishlar nafaqat turizm sohasi, uning subyektlari, institutlar hamda tadqiq etish va tartibga solishda yangicha ilmiy yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda turizmni yanada ravnaq toptirish, raqobatbardosh turizmni shakllantirish borasida boshlagan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, turizmni raqamli transformatsiyalashuv jarayonini jadallashtirish maqsadi belgilab olindi.

Raqamli iqtisodiyotda turizm sohasi bo'yicha axborot va boshqa ilg'or texnologiyalarga investisiyalar jalb qilish uchun qo'shimcha mehnat talab qiladigan ko'plab mahsulotlar yaratish emas, balki mavjudlarini amaliyotga qullash talab qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitda IT dan foydalanish turli darajada turizm sohasidagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot hajmlarini keskin ortishiga olib keldi. Pirovardida turistlarning bilimi va milliy xo'jalikda AKTlarining rivojlanishi uning taraqqiyoti va raqobatbardoshligi darajasi oshishini namoyon etmoqda.

**Natija va muhokama.** Turizmda AT texnologiyalar, katta hajmli ma'lumotlar va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar orqali turistik maskanlar axborotlashtirilmogda, turizm tubdan takomillashayapti, buning natijasida, turistlar tashrifi keskin ortishi bilan birga, ushbu jarayonlar butun jahonda kuchli ta'sirini ko'rsatmoqda.

Turizm raqamlashtirishning rivojlanishi bevosita AKTlarining rivojlantirilishi bilan belgilanadi, jumladan:

turistik xizmatlar ko'rsatish, shuningdek qo'shimcha qiymatga ega bilim va axborot salmog'ining ortib borishi. Bu esa ilm sig'imi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-turistik infratuzilmalariga harajatlar ko'payishida o'z ifodasini topadi;


harajatlarining kamayishi hisobiga raqamli mahsulot xizmat samaradorligining ortishi;

turistik maskanlar, ixtisoslashgan mintaqaviy "raqamli klasterlar" infratuzilmalari doirasida bitta mehnat va boshqa resurslardan behisob darajada foydalanish doirasi;

Internetda axborot maydonchalarining chegaralanmaganligi tufayli Internet-reklamalarning jadal rivojlanishi;

raqobat ustunligini qo'lga kiritish uchun turistik korxonalar miqyosining kichraytirilishi, virtual turizmning paydo bo'lishi va boshqalar.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida turizm xizmatini samarali tashkil etish va yuritishda eng muhim muammolardan biri malakali xodimlarni jalb qilish masalasi hisoblanadi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashtirishning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi va Internet tizimidan keng miqyosda foydalanish imkoniyatini paydo bo'lishi, ushbu muammoni hal etish imkonini bermoqda (1-rasm).



**1-rasm. Turizmning rivojlanishi bilan bog'liq IT texnologiyalar**

1-rasmdan turizm sohasini rivojlantirishda IT texnologiyalari katta ahamiyatga ega va ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. Online rezervatsiya va bronlash tizimlari, turistlar turar joylar, transport va ekskursiyalarni internet orqali qulay va tez bron qilishlari mumkin. Misol uchun, Booking.com, Airbnb, Expedia kabi platformalar bu yo'nalishda keng foydalaniladi.

2. Sayyohlik ilovalari va platformalari-mobil ilovalar sayohatchilarga marshrut tuzish, diqqatga sazovor joylarni topish, restoranlar yoki madaniy tadbirlarni tanlashda yordam beradi. Google Maps, TripAdvisor kabi ilovalar keng tarqalgan.

3. Raqamli marketing va tahlil-Sayyohlik agentliklari ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta marketingi va qidiruv tizimi optimizatsiyasi (SEO) orqali o'z xizmatlarini reklama qilishadi. Analitik vositalar orqali esa sayohatchilar xatti-harakatlarini kuzatib, ularni chuqur tahlil qilishadi.

4. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR)-VR texnologiyasi orqali turistlar virtual ekskursiyalar o'tkazishlari yoki diqqatga sazovor joylar bilan oldindan tanishib olishlari mumkin. AR texnologiyalari esa haqiqiy dunyoga qo'shimcha ma'lumotlar qo'shadi, masalan, tarixiy joylar haqida real vaqtda ma'lumot olish mumkin.

5. Chatbotlar va sun'iy intellekt (AI)-turizm xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalar o'z mijozlariga yordam berish uchun AI asosidagi chatbotlardan foydalanadi. Bu chatbotlar turli tilni biladigan mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatishi mumkin.


6. Blockchain texnologiyasi -blockchain orqali xavfsiz to'lovlar amalga oshirilishi, shuningdek, mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari himoya qilinishi mumkin. Bu texnologiya turistlarning o'zaro ishonchini oshiradi.

7. Big Data-Big Data orqali turistlarning xatti-harakatlari, tanlovlari va sayohat tendensiyalarini tahlil qilish, turizm xizmatlarini yaxshilash va aniq takliflar yaratish imkoniyati mavjud.

8. IoT (Internet of Things)-IoT turizm sohasida mehmonxonalar va boshqa turar joylar infratuzilmasini avtomatlashtirish, masalan, xonadagi sharoitlarni masofadan boshqarish yoki xavfsizlik tizimlarini o'rnatish uchun foydalaniladi. Bu texnologiyalar turizm sohasini zamonaviylashtirish, sayyohlarga qulaylik yaratish va turizm industriyasining samaradorligini oshirish uchun keng ko'lamda ishlatilmoqda.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turizm sohasida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotganligi zamonaviy bilim va malaka ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislariga talab muntazam ravishda ortib borayotganligining isbotidir. Bunda turizm korxonalarida xodimlarning ish joylari va mehnat sharoitlarida ham o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish, xodimlar intellektual salohiyatidan samarali foydalanish hamda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshiruvchi omillar ta'sir darajasini kengayishini yuzaga keltirmoqda.

Jahondagi kabi mamlakatimizda ham innovatsion iqtisodiyotga mos turizm bozorining innovatsion rivojlanish jarayoni shakllanib bormoqda. Mazkur jarayon turizm bozorida ish bilan innovatsion bandlik shakllari va turlarini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional asoslarini takomillashtirish va rag'batlantirishning o'ziga xos mexanizmini shakllantirishni taqazo etmoqda. Innovatsion yo'nalishda turizm bozorining rivojlanish strategiyasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan tahlil etish hamda tizimlashtirishni, uning an'anaviy yo'nalishlarining sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirishni nazarda tutuvchi turistik infratuzilma imkoniyatlarini belgilaydi (2-rasm).



Shahrisabz shahri O'zbekistondagi qadimiy shahar bo'lib, u turistik imkoniyatlar jihatidan boy va o'ziga xos tarixiy, madaniy va me'moriy yodgorliklari bilan mashhur.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar-Shahrisabz o'zining qadimiy tarixi va madaniy merosi bilan sayyohlarni jalb qiladi:

- Amir Temur saroyi – Oqsaroy: Bu me'moriy yodgorlik Amir Temur davrida qurilgan bo'lib, O'zbekistondagi eng qadimiy inshootlardan biridir. Bu joyda turistlar Amir Temur davridagi boy tarixni his qilishlari va qadimiy me'moriyat bilan tanishishlari mumkin.
- Dorut Tilovat va Dorus Saodat majmualari: Ushbu majmualar Amir Temur va uning avlodlari dafn qilingan joylar bo'lib, O'rta asr me'moriyati va islomiy san'at namunalari o'zida mujassam etgan. Turistlar uchun bu joylar diniy va tarixiy ahamiyatga ega.
- Hazrat Imom majmuasi: Bu joy tarixiy va diniy obida sifatida ahamiyatli. U yerdagi maqbaralar va masjidlar O'rta asr islomiy me'moriyatining yorqin namunalari hisoblanadi.


Madaniy festival va tadbirlar-Shahrisabzda turli xil madaniy tadbirlar va xalqaro festivalar o'tkaziladi. Ushbu tadbirlar sayyohlarga O'zbekistonning boy madaniyati va urf-odatlarini yaqindan bilish imkonini beradi. Shahrisabz Sharq Taronalari festivali: Ushbu xalqaro musiqa festivali ko'plab davlatlardan san'atkorlar va sayyohlarni jalb qiladi. Festival davomida an'anaviy musiqa va raqslar namoyish etiladi. Amir Temur tavalludi kuni- Amir Temur tavalludi munosabati bilan Shahrisabzda ko'plab tadbirlar va madaniy bayramlar o'tkaziladi.

Ekoturizm imkoniyatlari-Shahrisabz faqat tarixiy joylar bilan emas, balki tabiiy go'zalliklari bilan ham mashhur. Shaharga yaqin joylardagi tabiat bog'lari va tog' manzaralari ekoturizm uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Zarafshon tog' tizmasi: Bu yerda turistlar tabiat qo'ynida dam olish, piyoda sayohat qilish yoki mahalliy flora va faunani o'rganish imkoniga ega. Mahalliy qishloqlar va an'anaviy hayot tarzi: Shahrisabz atrofidagi qishloqlarda sayyohlar o'zbek qishloq hayotini ko'rishlari va an'anaviy hunarmandchilik, dehqonchilik va o'zbek oshxonasini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Me'moriy turizm-Shahrisabz Amir Temur davridan qolgan noyob me'moriy yodgorliklari bilan diqqatga sazovor. Turistlar bu yerda Amir Temur davrida qurilgan saroylar va madrasalarni tomosha qilishlari, O'rta asr me'morchiligi haqida bilim olishlari mumkin.

Gastronomik turizm-O'zbekiston oshxonasi butun dunyoda mashhur bo'lib, Shahrisabzda ham an'anaviy o'zbek taomlari turistlarni o'ziga tortadi. Shahrisabz palovi, somsa, qovurilgan lag'mon kabi mahalliy taomlar sayyohlar uchun o'ziga xos tajriba bo'ladi. Mahalliy oshxona va choyxonalarda turistlar ushbu milliy taomlarni tatib ko'rishlari mumkin.

Xuddi shuningdek Shahrisabz shahri va uning atrofidagi hududlar O'zbekistonning tabiiy go'zalliklari bilan mashhur bo'lib, ekoturizm uchun katta imkoniyatlarga ega. Ekoturizm sayyohlarga tabiiy manzaralardan zavq olish, mahalliy ekotizimni o'rganish va barqaror turizm amaliyotlari bilan tanishish imkonini beradi. Quyida Shahrisabz shahrining ekoturizm imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan (3-rasm).



**1-rasm: Shahrisabz shahrining ekoturizm imkoniyatlari**

Zarafshon tog' tizmasi-Tog' sayohatlari (trekking): Shahrisabz Zarafshon tog' tizmasiga yaqin bo'lganligi sababli, bu yerda tog'lar bo'ylab piyoda sayohatlar mashhurdir. Tog' yo'llaridan o'tib, turistlar go'zal manzaralar, tog' vodiysidagi qishloqlar va mahalliy flora va faunani kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Tabiiy manzaralar-Zarafshon tog'lari turistlarga yovvoyi tabiatni tomosha qilish va tabiat qo'ynida dam olish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Yozda tog'lar yam-yashil, bahorda esa turli xil gul va o'simliklar bilan qoplanadi.

Shahrisabz atrofidagi qishloqlar-Mahalliy hayot tarzi va ekologik turizm: Shahrisabzning tog'lar bilan o'ralgan qishloqlari sayyohlarga mahalliy aholi hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Bu qishloqlarda ekologik jihatdan toza mahsulotlar yetishtiriladi, an'anaviy dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullaniladi. Ekologik toza mahsulotlar: Sayyohlar mahalliy dehqonlardan ekologik toza mevasabzavotlar, shuningdek, an'anaviy usulda tayyorlangan taomlarni tatib ko'rishlari mumkin. Mahalliy qishloq xo'jalik mahsulotlari ekoturizmning muhim qismi hisoblanadi.

Milliy bog'lar va qo'riqxonalar Qashqadaryo viloyatining tabiiy qo'riqxonalariga kirish: Shahrisabzdan uzoq bo'lmagan joylarda qo'riqxonalar va milliy bog'lar mavjud bo'lib, ular tabiiy resurslarni saqlash va yovvoyi hayvonlarni himoya qilish maqsadida yaratilgan. Turistlar bu joylarda tabiatni o'rganish, yovvoyi hayvonlar va o'simliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Qushlar kuzatuv (birdwatching): Shahrisabz atrofidagi tabiat qo'ynida sayyohlar qushlarni kuzatish va ularning turli xil turlarini o'rganishlari mumkin.

Chimqo'rg'on suv ombori-Suv turizmi Shahrisabzga yaqin joyda joylashgan Chimqo'rg'on suv ombori suv sportlari va dam olish uchun yaxshi joy hisoblanadi. Suv

bo'yida tabiat qo'ynida dam olish, baliq ovlash va kemalarda sayohat qilish imkoniyatlari mavjud.

Ziyorat turizmi va tabiiy go'zalliklar -Shahrisabzdagi tarixiy va ziyoratga oid joylar (masalan, Amir Temur va uning avlodlariga tegishli maqbaralar) atrofidagi tabiiy go'zalliklar ziyorat turizmi va ekoturizmni birlashtirish imkoniyatini beradi. Turistlar bu yerda nafaqat tarixiy yodgorliklar bilan tanishadilar, balki tabiatning go'zalligidan ham zavqlanishadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda ta'kidlashimiz mumkinki, turizmni rivojlantirishning zamonaviy hamda istiqbolli shakllaridan biri - bu masofaviy turizm xizmatlarini tashkil qilish hisoblanadi. Uy xizmatning asosiy ustunligi, uning moslashuvchanligidadir. Turizm maskanlari joylashuvidan qat'iy nazar o'zaro kelishuv asosida masofaviy tarzda tashkil etish imkoniyatiga egadir.

Bizningcha, masofaviy turizm xizmati, turizm xizmatlar markazlariga joylashgan holda AKTlari orqali o'zaro munosabatlarini amalga oshiruvchi xizmat shakliga aytiladi.

**Xulosa.** Turizm xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakllari yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan va salmoqli insoniy va ijtimoiy kapitalga ega bo'lgan mustaqil mutaxassislarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, ular mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalashning muhim subyektlari bo'lib, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari shaxsiy rivojlanish istiqbollari kengaytiradi.

Masofaviy turistik xizmat ko'rsatishni samarali tashkil etishda asosiy e'tiborni mehnat qonunchiligini takomillashtirish, masofaviy xizmatlar uchun kafolatlar tizimini takomillashtirish, nazorat vositalari hamda aloqa va axborot xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.V.Zorin, V.A.Kvartalnov. Ensiklopediya turizma. -M: F i S.2004. 243 s.
2. Т.Тошмуратов, А.Норчаев. Халқаро туризм. Уқув қулнма. -Т.; ТДИУ 2000 й. -12 б.
3. А.Н.Норчаев. Номзоддик диссертацияси. ТДИУ. 106 б.
4. Одегов Юрий Геннадьевич, Павлова Валентина Васильевна. Новые технологии и их влияние на рынок труда // Уровень жизни населения регионов России. 2018. №2 (208). - С. 60-70.
5. Зокирова Н.К., Абдурахманова Г., Сагидуллин Ф.Р. Трансформация форм занятости в инновационном развитии // International scientific review. 2020. №LXX. - С. 24-28.
6. Квартальнов В.А. Туризм: Учебник. -М.:ФиС, 2007.
7. <https://www.bmas.de/SharedDocs/Downloads/DE/PDFPublikationen/Forschungsberichte/forschungsbericht-fb-442-arbeitsqualitaet.pdf>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

